

Tovarlar va xizmatlar bozori

2018 yil I chorak

2018 yil yanvar`-martda chakana tovar aylanmasi 950,9 mlrd. so`mni tashkil etdi va o`tgan yilning shu davriga nisbatan 103,0 foizga o`sdi.

Xo`jalik yurituvchi sub`ektlarning mulkchilik shakllari bo`yicha chakana tovar aylanmasi

Savdo korxonalarining chakana savdo aylanmasi hajmi 2018 yil yanvar`-martda 73,7 mlrd. so`mni tashkil qilib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 136,7 foizga oshgan.

Xakka tartibdagi tadbirkorlikning jami chakana savdo hajmi joriy yilning yanvar`-mart oylarida 877,2 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 100,9 foizga oshgan.

2018 yil yanvar`-martda chakana savdo aylanmasi tarkibi

Umumiy ovqatlanish sohasining tovar aylanmasi 19,1 mlrd. so`mga etdi yoki 2017 yil yanvar`-martga nisbatan 1,1 foizga o`sdi.

Chakana savdo (umumovqatlanish faoliyatini qo`shgan holda) aholi jon boshiga nisbatan hisoblaganda 1,6 foizga oshdi va 515,4 ming so`mni tashkil etdi (2017 yil yanvar`-mart oylarida 412,0 ming so`mni tashkil etgan).

2018 yil yanvar`-martda **bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari** bo`yicha hajmi 941,2 mlrd. so`mni tashkil qildi, shu jumladan qishloq joylarida 265,2 mlrd. so`m yoki umumiy ko`rsatilgan xizmatlar hajmining 28,2 foizini tashkil qildi. 2017 yil yanvar`-martga nisbatan o`shish 105,7 foizni tashkil etdi.


2018 yilning yanvar`-martida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha taqsimlanishi

Xizmatlar tarkibida eng katta ulush transport (jami xizmatlarning 26,5 foizi), savdo (25,7 foizi) xizmatlariga to'g'ri keldi.

Shuningdek, moliyaviy xizmatlar (126,3 foiz), me'morchilik, muxandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (118,8 foiz), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (114,6 foiz), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (110,8 foiz), ijara va prokat xizmatlari (110,6 foiz), o'sish sur'ati yuqori bo'ldi.

2018 yil yanvar`-marta iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor

Xizmatlari ishlab chiqarish



Joriy yil yanvar`-mart oylari davomida iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha ko`rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida transport xizmatlari eng katta ulushni egallagan bo`lib, 249,6 mlrd. so`mni tashkil etgan, 2017 yilning mos davriga (2017 yilda 198,1 mlrd. so`m) nisbatan 1,1 foizga oshgan, shuningdek ko`rsatilgan xizmatlar hajmida savdo xizmatlari 242,3 mlrd. so`m (2017 yilda - 161,2 mlrd. so`m), moliyaviy xizmatlar - 116,7 mlrd. so`m (2017 yilda 80,1 mlrd. so`m) va ta`lim sohasidagi xizmatlar - 47,4 mlrd. so`m (2017 yilda - 35,4 mlrd. so`m) hissalariga to`g`ri keldi.

Ko'rib chiqildi:

- 🏠
- 🏢
- ✉️

- [Vazirlar Kengashi](#)
- [Statistik va tahliliy ma'lumotlar](#)
- [Vazirliklar va idoralar](#)
- [Shahar va tuman hokimliklari](#)
- [Hujjatlar](#)
- [Respublika mehmonlariga](#)
- [Elektron hukumat](#)
- [Interaktiv davlat xizmatlar](#)